

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XOJANIYAZOVA GULSHANA MURATBAEVNA

QORAQALPOQLARNING KUNDALIK HAYOTIDA O'ZARO YORDAM
AN'ANALARI

07.00.07. – Etnografiya, etnologiya va antropologiya

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus - 2025

О‘О‘Q: 908(575.172)(043):39(575.172)(043)

572.9(575.172)(043)

X-82

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Хожаниязова Гулшана Муратбаевна Qoraqalpoqlarning kundalik hayotida o'zaro yordam an'analari	3
Хожаниязова Гулшана Муратбаевна Традиции взаимопомощи в повседневной жизни каракалпаков.....	27
Khojaniyazova Gulshana Muratbaevna Traditions of mutual assistance in the daily life of Karakalpaks.	51
E'lon qilingan ishlar ro'uxati Список опубликованных работ List of published works.....	55

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XOJANIYAZOVA GULSHANA MURATBAEVNA

QORAQALPOQLARNING KUNDALIK HAYOTIDA O'ZARO YORDAM
AN'ANALARI

07.00.07. – Etnografiya, etnologiya va antropologiya

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.Phd/Tar1159 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpoq bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) hamda «Ziyonet» (www.ziyonet.uz) axborot-ta'lim portalida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Davletiyarov Madatbay Maxsetbaevich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), k.i.x.

Rasmiy opponenlar:

Matkarimova Sadokat Maksudovna
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Turekeev Quwanishbek Jienbekovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), k.i.x.

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Nukus filiali

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc03/06.04.2024.tar.20.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «31» VI soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, akademik Ch.Abdirov ko'chasi №1. Tel.: (99861) 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№314 raqam bilan ro'yxatga olingan (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy, Qoraqalpoq davlat universiteti tarix fakulteti. Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «10» VI kuni tarqatildi.
(2025 yil «10» VI dagi 2 raqamli reestr bayonnomasi)



Rapurb

M.A. Karlibaev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

[Signature]
H.M. Otegenov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent

[Signature]
B.A. Koshanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. O‘zaro yordam masalasining an’anaviy turlarini o‘rganish butun dunyo bo‘ylab zamonaviy etnografik tadqiqotlarning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi, chunki u turli xalqlarning ijtimoiy tizimi va tuzilishi, madaniy turmushini chuqur anglash imkonini beradi. Globallashuv va jamiyatimizning tez o‘zgarishi sharoitida o‘zaro yordam masalasini o‘rganish zamonaviy holatda ham saqlanib qoladigan ijtimoiy birdamlik hamda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini aniqlashga yordam beradi. Bu holatlar faqatgina jamiyatning omon qolishi va ular o‘rtasidagi munosabatlarning mustahkamlanishiga hissa qo‘shibgina qolmasdan, balki madaniy o‘ziga xoslik ham shakllanadi. Bundan tashqari, o‘zaro yordamning an’anaviy turlarini anglash jamiyatni mustahkamlash va yordamga muhtoj insonlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan zamonaviy ijtimoiy an’analar va takliflarni ishlab chiqish uchun zarur bo‘lishi mumkin. Mana shu jihatdan, etnologik tadqiqotlar madaniy merosni saqlash va ijtimoiy rivojlanishni ta’minlashning muhim quroliga aylanadi.

O‘zaro yordam masalalari xalq orasida yaxshi rivojlangan va saqlanib qolgan odatlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasida istiqlolning dastlabgi yillaridan boshlab, tariximizni, milliy madaniyatimizni, o‘rganishga gumanitar soha ilmida eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Bu holat etnografiya fani oldiga milliy madaniyat, qadriyatlar va urf-odat, an’analarni har tomonlama yangicha qarashda o‘rganish kabi talablarni qo‘ydi. Buning natijasida ko‘pgina etnograf-olimlarning tadqiqot obyektlariga aylangan masalalar qatorida o‘zaro yordam an’anasini antropologik, etnografik aspektlarda keng o‘rganish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Qoraqalpog‘istonda o‘zaro yordam an’analariga tegishli zamonaviy tadqiqotlar hududning o‘ziga xos madaniy merosini saqlash, mahalliy tashkilotlarda ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qilishi bilan muhim va dolzarb hisoblanadi. O‘zining boy tarixi va har xil etnik guruhlariga ega Qoraqalpog‘iston o‘zaro yordamning an’anaviy ko‘rinishlari zamonaviy vaziyatga moslashuvini o‘rganish uchun ideal sharoit yaratadi. Ushbu tadqiqotlar faqatgina ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va birdamlik mexanizmlarini yaratibgina qolmasdan, balki ularning iqtisodiy va iqlim o‘zgarishi sharoitida jamiyat muvozanatini ta’minlashdagi rolini ham ko‘rsatadi. Mana shu an’analarni tushunish nafaqat madaniy xususiyatlarni saqlab qolish, balki ijtimoiy integratsiya va rivojlanishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa global muammolar doirasida qaralganda juda muhim sanaladi. Qoraqalpog‘istonda o‘zaro yordam masalasi bo‘yicha olib borilayotgan etnografik tadqiqotlar faqatgina fan tushunchalarga emas, mahalliy xalq turmush tarzining sifatini yaxshilashga qaratilgan fanlarni amaliyotga tatbiq etishga ham xizmat qilmoqda.

Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «2017-2021 - O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh asosiy yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli¹,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «2017-2021 O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz>

2018-yil 16-yanvardagi «Moddiy, ma'naviy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida»gi F-5181-son², 2023-yil 1-iyundagi «Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uni samarali nazorat qilish tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-82-son Farmonlari³ va 2022-yil 29-apreldagi «Ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-230-son Qarorida⁴ hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadqiqotimiz bilan bog'liq adabiyotlarni o'rganish davomida shu kungacha qoraqalpoqlardagi o'zaro yordam masalasini o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar olib borilmaganligining guvohi bo'ldik. Ba'zi tadqiqotchilarning ishlarida bu masala yuzaki ko'rib o'tilgan.

Tadqiqotimiz vazifalari va metodologik talablaridan kelib chiqib, bu masala bo'yicha adabiyotlarni quyidagi uch guruhga ajratishimiz mumkin: 1) O'rta Osiyo xalqlarida o'zaro yordam an'anasi masalasining o'rganilishi; 2) O'zaro yordam an'anasining qoraqalpoq etnograflari tomonidan o'rganilishi; 3) O'zaro yordam an'analari chet el tadqiqotlarida.

Markaziy Osiyo xalqlari turmushida o'zaro yordam an'anasi masalasining o'rganilishi tarixiylik – qiyosiy tahlilga asoslangan. Bu tadqiqotlarning farqli tomoni shundaki, o'zaro yordam masalasi jamoaviy hamkorlikni ta'minlovchi omil sifatida izohlanadi.

Ikkinchi guruh tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida qoraqalpoqlardagi o'zaro yordam *ko'mak* an'anasi haqida ma'lumotlar berilgan. O'zaro yordam «*ko'mak*» an'anasi qoraqalpoq etnografiyasi ilmida etnograflar tomonidan asosan tarixiylik va genetik jihatdan ko'rib chiqilgan. Tadqiqotchilarning ko'pchiligi o'zaro yordam *ko'mak* masalasini asosan tarixiy taraqqiyotning oldingi bosqichlarida bor bo'lgan urf-odat va an'analarni o'rganish nuqtai nazaridan ko'rsatiladi.

Uchinchi guruh adabiyotlarida chet el tadqiqotchilari tomonidan o'zaro yordam masalasini ijtimoiy institut yoki ijtimoiy-iqtisodiy aspektlarda

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 yanvardagi «Moddiy, madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida»gi F-5181-sonli Farmoyishi. <https://www.lex.uz>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1-iyundagi «Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-82-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-apreldagi «Ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-230-sonli Qarori <https://www.lex.uz>

o'rganilishiga bag'ishlangan tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Bu tadqiqotlar oldingi keltirilgan guruhlardan farqli ravishda, tadqiqotlarning ilmiyligi va tizimli yondashilganligi bilan ajralib turadi.

Dissertatsiyaning birinchi bobi bu masalaning tarixshunosligining mana shu uch davrining ilmiy tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda muammoning o'rganilganlik darajasi maxsus tahlil qilingan⁵.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2021-2023 yy. bajarilgan «Globallashuv sharoitida qoraqalpoq xalqining an'anaviy madaniyati» mavzusidagi fundamental loyiha rejasi asosida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi. Qoraqalpoqlarning o'zaro yordam – «ko'mak» an'anasining jamiyatimizdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Belgilangan maqsadimizga erishish uchun biz quyidagilarni ishimizning asosiy **vazifalari** sifatida belgilab oldik;

qoraqalpoqlar turmushidagi an'anaviy o'zaro yordam turlarini tasnif qilish;

qarindosh-urug'lar va qo'shnilar tomonidan oilaviy marosimlarda ko'rsatiladigan o'zaro yordam turlarini ko'rib chiqish;

qoraqalpoqlar orasida homiylik yordamining kelib chiqishi va xususiyatlarini ko'rib chiqish;

qoraqalpoqlarda jamoaviy o'zaro yordam an'analari ya'ni qishloq xo'jalik ishlaridagi, qurilish ishlardagi yordam an'analari aniqlash hamda bozor iqtisodi sharoitidagi ko'makning o'rnini o'rganish;

qoraqalpoqlarda tabiiy ofat va Pandemiya sharoitidagi o'zaro yordam masalasini o'rganish;

O'zaro yordam an'anasining qoraqalpoqlar turmushida tutgan o'rni va ularning transformatsiyasini tahlil qilish va tadqiqot mavzuumizga doir xulosalar berishdan iborat.

Tadqiqot obyekti. Qoraqalpoq xalqining oila va ijtimoiy ahamiyatga ega o'zaro yordam bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va marosimlari.

Tadqiqot predmeti. O'zaro yordam an'anasining shakllanishi, uning transformatsiyasi va bugungi kundagi ahamiyatini o'rganish.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotida tarixiylik, obyektivlik, funksional-struktur metodlardan foydalanildi. Shuningdek, ishda maxsus etnografik tadqiqot usullari bo'lgan intervyu, ijtimoiy anketalar, kuzatish kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qoraqalpoqlarning kundalik turmushida o'zaro yordam ya'ni «ko'mak» an'anasining har xil shakllarining ya'ni *jabiw, oramal saliw, nemewrin, homiylik qilish, pullik yordam berish, qarindoshlar, do'stlar va qo'shnilar orasidagi yordam hamda 2020-yilgi Pandemiya paytidagi yordamning o'zgarishga uchragan yangi turlari* va ularning kundalik hayotda qo'llanilishi aniqlandi;

⁵ Dissertatsiya ishining tadqiq qilinish darajasi 1 bobda ochib berilgan.

qoraqalpoqlarning to‘y-hashamlardan oldin, bu kabi marosimlar paytida va undan keyingi qarindosh-urug‘lar, qo‘shnilar orasidagi o‘zaro yordam turlari «nemewrin», «jabiw», «oramal saliw», «spiskadan o‘tiw (marosimlarda pul yozdirish)» kabi urf-odatlarining bir-biridan farqli xususiyatlari har tomonlama o‘rganilib isbotlandi;

bozor iqtisodi sharoitida qishloq xo‘jalik ishlaridagi har xil yordam turlari, *otin ko‘mek, gunji ko‘mek, ju‘weri ko‘mek* kabi turlarining *pullik xizmat ko‘rsatish* turiga o‘tganligi, shuningdek, «*jay ko‘mek*» an‘anasining ham transformatsiyaga uchraganligi va ularning sabablari aniqlandi;

qoraqalpolarda tabiiy ofat holatidagi o‘zaro yordam, ko‘mak masalasi o‘rganilib, suv toshqinlari, qurg‘oqchilik, yong‘in holatidagi, Pandemiya paytidagi an‘anaviy yordamdan tashqari yangi turlari ochib berildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot davomida olingan natijalardan etnografik manbalar to‘plamini ishlab chiqish, qoraqalpoq xalq etnografiyasi bo‘yicha umumlashtirilgan ilmiy ishlarni yozish, qoraqalpoqlar etnografiyasi bo‘yicha maxsus kurslar tashkillashtirish, shuningdek hududda yashovchi aholining ijtimoiy-iqtisodiy antropologiyasi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada obyektivlik va tarixiylik kabi tamoyillardan foydalanish, shuningdek, daliliy manbalarga (qo‘lyozma, dala etnografik materiallar) tayangan holda struktur-funksional tahlil usullarining qo‘llanilganligi bilan isbotlanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularning respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamlarida, O‘zR OAK tomonidan tavsiya qilingan jurnallarda va xorijiy jurnallarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qoraqalpoqlarning kundalik turmushida qo‘llaniladigan an‘anaviy o‘zaro yordam masalalarining xususiyatlarini yoritishda va ushbu muammoni o‘rganishda metodologik yondashuvlar va nazariy xulosalar bilan takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qoraqalpolarda an‘anaviy o‘zaro yordam masalasining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish natijasi asosini jamoaning ma‘naviy va moddiy taraqqiyoti, umuman O‘zbekiston xalqlari tarixi, madaniy merosining o‘ziga xosligini o‘rganishni yo‘lga qo‘yish, kelajakdagi davlat an‘analarini o‘tkazish, shuningdek jahon xalqlari etnik madaniyati bo‘yicha ilmlarni boyitish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpoqlarning kundalik turmushida o‘zaro yordam an‘analarini o‘rganishga doir tadqiqot natijalari asosida:

ekologik sharoitda qoraqalpoqlarning agrar xo‘jaligida o‘zaro yordam masalasi, bozor iqtisodi sharoitida shakllangan yordam turlari - pullik xizmat turlarining jamiyatimizda joriy etilishiga (pullik xizmat ko‘rsatish turlarining qishloq xo‘jaligi sohasida qo‘llanilishi, uning turlari, ishtirokchilari) doir natijalardan “Globallashtirish sharoitida qoraqalpoq xalqining an‘anaviy madaniyati” (2021-2023) mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi

Gumanitar fanlar-ilmiy tadqiqot instituti 2024-yil 23-sentabrdagi 429/1-sonli ma'lumoti). Asosan, joriy etilgan natijalar qoraqalpoqlarning tabiiy ofat sharoitida o'zaro yordam an'anasi va uning transformatsiyasi kabi yo'nalishlarini o'rganish imkonini bergan;

qoraqalpoqlarning turmushida o'zaro yordam masalasining kundalik turmushda qo'llanilishi, shuningdek, *nemewrin, jabiw, oramol saltw, on bolsin* kabi an'analarning xususiyatlari, o'ziga xos ma'lumotlari va natijalari O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniy meros boshqarmasida qoraqalpoqlarning turmush tarzini aks ettiruvchi materiallar tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyining 2024-yil 9-apreldagi 129-sonli ma'lumoti). Bunda asosan, qoraqalpoqlarning uy-ro'zg'or ishlarida, kundalik maishiy ishlarini tashkillashtirish bilan bog'liq bo'lgan muzey eksponatlarini keng tushuntirishda o'zaro yordam an'analari muhim ahamiyatga ega sanaladi;

qoraqalpoqlar hayotidagi o'zaro yordam an'analari, ayniqsa ularning etnomadaniy jihatdan muhim bo'lgan to'y marosimlari va to'ylarda beriladigan o'zaro yordamlar bo'yicha tayyorlangan ko'rsatuvlar "Assalom Qoraqalpog'iston", "O'lkamiz bo'ylab" kabi ko'rsatuvlarni tayyorlashda foydalanilgan hamda "Qoraqalpog'iston" radiokanali orqali efirga berilgan "Yoshlar vaqti" radio eshittirishida o'z tadqiqotining dolzarbligi, zarurati, maqsad va vazifalarini ilmiy asosda tahlil qilib berdi (O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi Qoraqalpog'iston Teleradiokompaniyasining 2024-yil 25-sentabrdagi 05-22/425-son ma'lumotnomasi). Asosan, ishda oila va qarindoshlik munosabatlaridagi o'zaro yordam va uning turlari, yordamning turmushdagi o'rni haqida asoslab berilgan ilmiy xulosalar yosh oilalarning turmush qurishdagi yoki qarindosh-urug'chilik munosabatlaridagi, inqirozli Pandemiya sharoitidagi xayr-saxovat, homiylik yordamlarini tartibga solish bo'yicha ko'nikmalarni boyitishga yordam bergan;

qoraqalpoqlar turmushidagi o'zaro yordam an'analari, ayniqsa ularning kundalik maishiy ishlarida muhimligi va uy-ro'zg'or ishlarini tashkillashtirishda yordam an'alaridan foydalanganligi va qoraqalpoq tasviriy san'at vakillarining ko'rgazmaga qo'yilgan eksponentlarining mazmunini to'la ochib berishda foydalanilgan (O'zbekiston badiiy-san'at akademiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limining 2023 yil 18 maydagi 84-son ma'lumotnomasi). Asosan, tadqiqot natijalari qoraqalpoqlarda o'zaro yordam institutining jamiyatdagi tutgan o'rni, saqlanish darajasini, ularning jamiyatdagi vazifalari va roliga oid ilmiy bilimlarni boyitishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 respublika va 4 xalqaro (Nukus, Toshkent) ilmiy-amaliy va nazariy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga qarashli Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik

dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini nashrdan chiqarish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 12 maqola, shundan 4 chet el, 8 respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 133 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, aprotatsiyasi, natijalarning joriy qilinishi, e'lon qilinganligi hamda tarkibiy tuzilishi tavsiflangan.

Tadqiqotning **“Ko'mak – o'zaro yordam ijtimoiy institutining o'rganilishi va uning metodologik muammolari”** deb nomlangan birinchi bobida qoraqalpoqlardagi o'zaro yordam – *ko'mak* ijtimoiy institutining ahamiyati, roli va o'rganilishi, mazkur masalaning chet el tadqiqotchilari tomonidan tadqiq qilinishi va qo'shni xalqlardagi o'zaro yordam masalalarining o'rganilishi bilan qiyosiy o'rganiladi.

Ushbu bobning **“Qoraqalpoqlarning kundalik turmushida o'zaro yordam an'analari: tarifi, tasnifi va dala yozuvlarining tahlili”** deb nomlangan birinchi paragrafida qoraqalpoqlardagi o'zaro yordam an'anasiga ta'rif beriladi, uning xalq orasidagi har xil nomlari keltiriladi, shuningdek, dala yozuvlari tahlil qilinadi.

An'anaviy o'zaro yordam jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro majburiyatlarni qo'llab-quvvatlash va birgalikda harakat qilishni o'z ichiga oladi. Bu esa, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va madaniy an'analarni saqlashga yordam beradi.

An'anaviy o'zaro yordam turli xil xalqlar orasida turli nomlar bilan uchraydi. Masalan, qirg'izlarda oilaviy bayramlar va marosimlarni amalga oshirishda ko'rsatiladigan yordam turi *«koshumcha»* deb ataladi. Tojiklar *«to'p»*, *«hashar»* atamalaridan foydalanadi⁶. Turkmanlarda, ayniqsa, chorvachilik va dehqonchilik sharoitida o'zaro yordam berish odatini anglatuvchi *«yuvar»* atamasi bor⁷. Slavyan xalqlarida bu odatni *yordam* degan nom bilan ataydi⁸. Kavkaz xalqlari o'zaro yordamni *«belxi»* de atashadi⁹.

Dissertatsiyada o'zaro yordam masalasi ikki tomonlama ko'rib chiqiladi – oilaviy marosimlarni o'tkazishda va qishloq xo'jalik, qurilish va boshqa turdagi ishlarda ko'rsatiladigan yordamlar. Bundan tashqari, homiylik yordami va tabiiy ofat vaqtida korsatiladigan yordam kabi o'zaro yordam turlari maxsus ko'rib

⁶ Турсунова Г.Н. Теоритические и прикладные виды архаического обмена (в свете воззрений классиков политэкономии и традиции, бытовавших у таджиков и других народов Центральной Азии) // Региональные проблемы преобразования экономики. – Махачкала, 2014. - №8. – С. 204-210.

⁷ Демидов С.М. Традиционное хозяйство туркмен: земледелие, скотоводство, рыболовство, охота // Туркмены. Народы и культуры. – М., 2016. – С. 138.

⁸ Чеснокова Ю.В. Возникновение и развитие социальной помощи и взаимопомощи в древнейших славянских общинах // Балтийский гуманитарный журнал. – Самарская обл., 2018. - № 1. – С. 390-392.

⁹ Аккиева С.И. Институт взаимопомощи на Северном Кавказе: от традиции к современности // Образование и право. – М., 2023. - № 12. – С. 603-608; Эльмурзаева А.Д. Обычай взаимопомощи у народов Дагестана // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия: Регионоведение: философия, история, социология, юриспруденция, политология, культурология. – Майкоп, 2013. - № 4. – С. 82-85.

chiqiladi. Qishloq xo‘jalik va qurilish sohalaridan boshqa, qoraqalpoqlarda to‘y va boshqa marosimlar (*janoza, sadaqa, kichik mehmondorchilik marosimlar*) katta hajmda o‘tkazilganligi bois, qarindosh-urug‘, yaqin do‘stlar, qo‘shnilar orasida ko‘mak aytish an‘anaga aylangan.

Qoraqalpoqlarning xayr-saxovat qilish an‘analari ularning madaniy va ijtimoiy turmushining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, xalqimiz COVID-19 pandemiyasi kabi holatlarda xayr-saxovat va homiylik yordamlarining zarur ekanligini ko‘rsatdi.

2021-2024-yillar moboynida o‘rganilayotgan masala bo‘yicha dala etnografik tadqiqot ishlari o‘tkazilib kerakli ma‘lumotlar to‘plandi va bu ma‘lum darajada ishning ishonchli bo‘lishini ta‘minlaydi. Ma‘lumotlarni to‘plash Qoraqalpog‘istonning deyarli barcha tumanlarida amalga oshirildi.

Tadqiqot davomida Qonliko‘l, Qorao‘zak va Chimboy tumanlarida dala yozuvlarini to‘plash davomidagi kuzatishlarimizda «*nemewrin*» an‘anasining saqlanib qolganligi kuzatildi. Kegeyli, Qorao‘zak, Bo‘zatov tumanlarida o‘zaro yordam an‘analarini o‘rganish davomida yordamning ba‘zi turlarining yaxshi saqlanib qolganligi aniqlandi va *nan jabar* yoki *kepkir kuydi* kabi yordam turlari bilan bog‘liq har xil, juda boy ma‘lumotlar to‘plandi.

O‘zaro yordamning Qoraqalpog‘iston hududida istixomat qiluvchi o‘zbek etnik guruhlari qiyosiy o‘rganilib, ularning jabiw, qiz sepini yig‘ish va ko‘rpacha tikish kabi yordam turlari haqida eng to‘liq ma‘lumotlar Shomanay va Qo‘ngirot tumanlaridan olingan. «*Jabiw*» odatiga o‘xshash «*oramal saliw*» deb nomlangan o‘zaro yordam an‘anasi Mo‘ynoq tumanida ham mavjud bo‘lib, mana shu hududda keng tarqalgan dastur ekanligi aniqlandi.

Ushbu bobning “**Markaziy Osiyo xalqlarida o‘zaro yordam an‘anasi masalasining o‘rganilishi**” deb nomlangan ikkinchi paragrafida Markaziy Osiyo hududida yashovchi xalqlar turmushida o‘zaro yordam an‘anasini o‘rgangan olimlarning ishlari tahlil qilinadi¹⁰.

O‘zbeklar orasidagi o‘zaro yordam an‘analari haqida, eng avvalo, eslatib o‘tilgan tadqiqotchi er-xotinlar V.P va M.Nalivkinning Farg‘onadagi hashar: «Qavm, jo‘xori, makka va paxta yetishtirishda odatda, maxsus ishchilar tomonidan amalga oshiriladi. Shaharlarda kunduzgi ishchilar sifatida, qishloqlarda esa asosan o‘zaro yordam (hashar) yo‘li bilan» amalga oshiriladi, deb ta‘kidlaydi¹¹.

Tadqiqotchi X. Ismailovning tadqiqotlarida oddiy hashar qoida sifatida qishloq xo‘jaligi, sug‘orish, qurilish va boshqa sohalarda ko‘p mehnat talab etiladigan ishlar uchun ishlatilgan¹². An‘anaga ko‘ra, devorni qurish bir kunda tamomlanishi zarur edi. Shu sababli, «*devor hashar*», «*tom hashar*» va «*pardoqlash hashar*¹³» deb hasharga aytish turlarini ko‘rsatib o‘tadi.

¹⁰ Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана // Труды АН ТаджССР. Т. 28. – Сталинабад, 1954. – 133 с.; Шаниязов К.Ш., Исмаилов Х.И. Этнографические очерки материальной культуры узбеков конца XIX – начала XX в. – Ташкент, 1981. – С. 54-59; Жаббаров И. Узбеки. –Т., 2003. va h.

¹¹ Наливкин В. и Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. – Казань, 1886. – С. 20.

¹² Исмаилов Х. Хашар его роль в трудовом и интернациональном воспитании масс // Общественные науки в Узбекистане. – Т., 1983. №2. – С. 24-26.

¹³ Usha manba.

Tadqiqotchilardan T.X.Tashbaeva, M.D.Saburov¹⁴ tomonidan yozilgan «Новое и традиционное в быту сельской семьи узбеков» mavzusidagi monografiya bizning tadqiqotimiz bo'yicha foydali manba hisoblanadi.

Tadqiqotchi K.Shaniyazovning tadqiqotlarida esa, dala ishlarida (*dehqonchilikda yerga ishlov berish, ekinlarning yig'im-terim vaqtlari h.k.*) hasharga aytish¹⁵ haqidagi ma'lumotlarni olamiz, moddiy yordam berish paytlarida *ko'mak* so'zlaridan foydalanganini ko'rishimiz mumkin.

M.Payzieva tadqiqotlarida marosimning qoidalari haqida so'z yuritilib, ayollar marosim bo'lib o'tadigan uyga olib kelingan taomlarni tayyorlashini aytib o'tadi. Erkaklarning yordami, masalan, sabzi to'g'rash kabi janoza marosimiga tayyorlanishda yordam berishda ko'zga tashlanadi¹⁶.

Qirg'izlarning o'zaro yordam an'alarini turli etnografik asarlarda uchratishimiz mumkin. F.A. Fielstrup XX asr boshlarida olib borgan tadqiqotlarida qirg'izlarning turmushining madaniy va ijtimoiy tomonlarini tasvirlagan an'anaviy marosim va urf-odatlarining boyligi va xilma-xilligiga e'tibor qaratadi¹⁷.

Chorvachilikda ko'rsatiladigan yordamlar haqida M.S.Abramzon ishlarida, asosan, qarindosh oilalarning bir-biriga mehnatda yordami haqida yozadi va uni shaxsiy tomorqasidagi chorva mollarini boqish uchun jamoa chorvachiligi bilan shug'ullanuvchi qarindosh oilalarga o'tkazilishini keltiradi¹⁸.

Tadqiqotchi O.Naumova qirg'izlardagi yana bir yordam turi «*koshumcha*» haqida keltiradi¹⁹. Ayniqsa, «*yordam*» va «*koshumcha*» janoza «*osh*»i va «*to'y*» berganda ko'plab tashkillashtirilgan²⁰.

Qozoqlarda o'zaro yordam an'anasi *ko'mak* deb nomlanib, u har tomonlama o'rganilgan bo'lib, uning bir qancha turlarini ko'rishimiz mumkin: *asar*, *jilu*, *belko'tarar*. *Asar* – qozoq xalqining eng qadimiy urf-odatlaridan biri bo'lib, unga ko'ra odamlar yig'ilib, bir kishi yoki bir oilaning kuchi yetmaydigan ishlarni chin ko'ngildan bajarib bergan. *Jilu* – tabiiy ofat va kutilmagan vaziyatlardan jabr ko'rganlarga moddiy va ma'naviy jihatdan yordam berish. *Belko'tarar* – bu ham an'ana bo'lib, yoshi katta keksalarni davolash. *Belko'tarar* an'anasi keksalarga g'amxo'rlik qilish namunasi hisoblanadi²¹.

Axal turkmanlarning xo'jalik faoliyati bilan bog'langan an'anaviy o'zaro yordamning ba'zi tomonlari A.Orazov tadqiqotida keltirilgan²². Turkmanlarning

¹⁴ Ташбаева Т.Х., Сабуров М.Д. Новое и традиционное в быту сельской семьи узбеков. – Т.: ФАН, 1989.

¹⁵ Шаниязов К.Ш. Основные отрасли земледельческого хозяйства // Узбеки. Народы и культуры. – М.: Наука, 2011. – С. 90-107.

¹⁶ Пайзиева М. Ўзбекларнинг анъанавий ва замонавий мотам маросимлари (Тошкент шаҳри мисолида). – Т., 2014. – С. 140.

¹⁷ Фиельструп Ф.А. Из обрядовой жизни киргизов начала XX века. – М., 2002. – С. 141, 143.

¹⁸ Абрамзон С.М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. – Фрунзе, 1990. – С. 208.

¹⁹ Наумова О.Б. Кошумча – традиция взаимопомощи в современном киргизском обществе // Вестник антропологии. – М., 2023. - № 1. – С. 46.

²⁰ Ильясов С. Пережитки патриархально-родовых и феодально буржуазных отношений и киргизов до проведения сплошной коллективизации // Труды Инс-та языка, литературы истории Киргизского Филиал АН СССР. 1-т. – Фрунзе, 1945. – С. 135-136.

²¹ Абжан Г.М., Абылханова Г.А. Обычай и традиции Казахстана // Современные наукоемкие технологии. – М.: Академия Естествознания, 2014. - №10. – С. 54-58.

²² Оразов А. Этнографические очерки хозяйства туркмен Ахала в XIX – начале XX в. – Ашхабад, 1985. – С. 133.

an'anaviy o'zaro yordami, ya'ni yoshar, (yuvar) asosan, an'anaviy chorvachilik, ayniqsa qo'ylarni qirqish jarayoni bilan bog'liq²³.

To'y marosimlarida ko'rsatiladigan qarindoshlik yordam turlari Qorategin tojiklari va Darvoza monografiyalarida bayon etilgan²⁴.

Shunday qilib, bu boradagi tadqiqotlar o'zaro yordamning jamiyatdagi o'rnini yaxshiroq tushunishga, uni saqlash va rivojlantirishning tegishli strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Mazkur bobning **“O'zaro yordam an'anasining qoraqalpoq olimlari tomonidan o'rganilishi”** deb nomlangan uchunchi paragrafida qoraqalpoq olimlarining tadqiqotlaridagi qoraqalpoqlardagi o'zaro yordam an'anasining o'rganilishi masalasi tahlil qilinadi.

Xalq turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar, o'zaro yordam an'analari qoraqalpoq etnografiyasi ilmida o'rganilgan, xalq og'zaki ijodi namunalarida ham yorqin ko'zga tashlanadi.

R.Qosbergenov tadqiqotlarida «*ko'mak*» haqiqiy ma'noda ommaviy yordam. Markaziy Osiyoning ko'pgina xalqlarida har xil nomlar bilan ommaviy yordam ko'rsatish turlari saqlanib qolgan²⁵ - degan fikrni ilgari surdi.

Tadqiqotchi X.Esbergenov: «XIX asrda va XX asrning boshida, urug'lik o'zaro yordam korsatish an'anasi qoraqalpoqlarda ekspluatator xarakterga ega bo'lgan. Qishloqning feodal-boy zodagonlari «o'zaro yordamni» o'z manfaatlarini uchun foydalanadi. Masalan, boyning uyini qurganda yoki hosil yig'adigan paytda ko'pchilik jamlashib yordam berganda ularga to'langan yagona ish haqi ish bitgach, ularni ovqatlantirishgina bo'lgan»²⁶ degan fikrlarni keltiradi.

Akademik S.Kamalov o'z tadqiqotlarida qoraqalpoqlardagi o'zaro yordam masalasiga to'xtalib, unga maxsus izoh beradi²⁷. XIX-XX asr boshlaridagi qoraqalpoqlarning turmush tarzi, tarixi A.Bekmuratova²⁸ning ishlarida keltiriladi. Tadqiqotchi qoraqalpoqlarning «*nemewrin*» so'rash an'anasiga e'tibor qaratadi, muallifning yozishicha, qalin mol to'lash muddati yaqinlashganda nemewrin so'ralgan.

Etnograflar X.Esbergenov, T. Atamuratovlarning²⁹ ishlarida esa, to'y marosimlaridagi qarindosh-urug', qo'shnilar orasidagi o'zaro yordam masalalariga to'xtalib o'tiladi. Uning yana bir tadqiqotida to'yning o'tkazilishida yordam turlari, bo'g'irsoq (*bawirsaq*) pishirish, to'y xabarini aytish³⁰ kabi yordam turlari haqida ham so'z yuritilgan.

²³ Демидов С.М. Традиционное хозяйство туркмен: земледелие, скотоводство, рыболовство, охота // Туркмены. Народы и культуры. – М., 2016. – С. 138.

²⁴ Таджики Каратегина и Дарваза. - Вып. 3. – Душанбе, 1976. – С. 31.

²⁵ Косбергенев Р. Положение каракалпакского населения в Хивинском ханстве в конце XIX-начале XX века // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. 3. – М., 1958. – Б. 256-257.

²⁶ Есбергенев Х. Қарақалпақлардың гейпара дәстүрлери ҳаққында. – Нукус: Қарақалпақстан, 1964. – Б. 85.

²⁷ Камалов С. Каракалпакии в XVIII-XIX вв. (К истории взаимоотношений с Россией и среднеазиатскими ханствами). – Т.: ФАН, 1968. – Б. 137-138.

²⁸ Бекмуратова А. Быт и семья каракалпаков в прошлом и настоящем. – Нукус: Каракалпакия, 1969.

²⁹ Есбергенев Х., Атамуратов Т. Традиции и их преобразование в городском быту каракалпаков. – Нукус: Каракалпақстан, 1975.

³⁰ Есбергенев Х. Современные формы брака и семьи у каракалпаков // Вестник Каракалпакского отделения АН РУз. – Нукус, 1983. - №1. – С. 60-65.

Ayollar hunarmandchiligi bilan bog‘liq o‘zaro yordam an‘analari A.Otemisovning ishlarida berilgan. Bunday yordam, ayniqsa, ko‘p mehnat talab qiladigan va ko‘p odam kuchini talab qiladigan kigiz bosish an‘anasi ham keltirilgan³¹.

Istiqlol yillarida qoraqalpoq etnografiya ilmida o‘zaro yordam masalasining bazi an‘naviy turlariga to‘xtalib o‘tildi. Tadqiqotchi N.Tlewbergenova³² ning ilmiy ishlarida turar joy qurilishidagi «*jay kómek*» va uning qatnashuvchilari bo‘lgan «ko‘makchilar» haqida to‘xtaladi. T.Esberganova³³ tadqiqotlarida esa, bolalarni mehnatga o‘rgatishda yoshligidan tarbiyaning o‘rnini ko‘rsatish orqali ularning katta kishilar yonida kichik ishlarni bajaruvchi ko‘makchi ekanliklariga e‘tibor qaratadi.

Tadqiqotchi M.Davletiyarovning ijtimoiy institutlarga bag‘ishlangan katta hajmli tadqiqotlarida qoraqalpoqlar orasidagi o‘zaro yordamning ba‘zi tomonlariga to‘xtalib o‘tadi. Ayniqsa, «*kómak*» o‘zaro yordam an‘anasi madaniyat komponentlaridan biri ekanligini ta‘kidlab, uning ijtimoiy ahamiyatini, to‘y va boshqa marosimlarni tashkillashtirish masalalarini, qo‘shnilar orasidagi munosabatlarni ochib berishga harakat qiladi³⁴.

G.Akimniyazova³⁵ tomonidan oib borilgan tadqiqotlarda bozordagi savdogarlar orasidagi tovar sotishdagi o‘zaro yordam haqida qisqa to‘xtalib o‘tadi. Uning keltirishicha, oddiy bozor savdogarlari o‘zining tovarini sotib bo‘lsa, yonidagi savdogarning tovarini sotishga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda, qoraqalpoqlardagi o‘zaro yordam, ko‘mak masalasiga to‘xtalgani bilan uning kundalik hayotda bajaradigan vazifasi, turlari yoki ijtimoiy institut sifatidagi roliga e‘tibor qaratilmagan.

Demak, o‘rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qoraqalpoqlarda o‘zaro yordam «*ko‘mak*» an‘anasi etnografik jihatdan maxsus o‘rganilmaganligi tadqiqot mavzuumizning dolzarbligini yanada oshiradi.

Tadqiqotning **“Qarindoshlar va qo‘shnilar orasidagi munosabatlarda o‘zaro yordam institutining ahamiyati”** deb nomlangan ikkinchi bobida qarindoshlar hamda qo‘shnilar orasidagi munosabatlarda o‘zaro yordam - *ko‘mak* ijtimoiy institutining ahamiyati va roli o‘rganiladi.

Mazkur bobning **“Qoraqalpoqlarda to‘ydan oldingi o‘zaro yordam an‘anasi”** deb nomlangan birinchi paragrafida qoraqalpoqlarning to‘ydan oldingi an‘analari, qarindoshlar, do‘stlar va qo‘shnilarning o‘zaro yordami bilan bog‘liq an‘analar tahliliga bag‘ishlangan. Qoraqalpoq madaniyatida yirik oilaviy tadbirlarni o‘tkazishda o‘zaro yordam ko‘rsatish muhim o‘rin tutadi.

³¹ Отемисов А. Каракалпақлардың өнер-кәсіплери. – Нөкис, 1991. – Б. 63.

³² Тлеўбергенова Н. Традиционные жилище каракалпаков XIX –начало XX вв.: Дис. ... канд. ист. наук. – Нукус, 1996. – С. 121-122.

³³ Есбергенова Т.Е. Традиционное трудовое воспитание детей у каракалпаков: Дис. ... канд. ист. наук. – Нукус, 1999. – С. 73-74.

³⁴ Давлетияров М.М. Традиционные социальные институты каракалпаков. Монография. – Нукус: Илим, 2019. – С. 97.

³⁵ Акимниязова Г. Традиционный каракалпақский базар: особенности, специализация, торговцы (вторая половина XIX - первая половина XX века): Дис. ... д-ра. филос. (PhD) ист. наук. – Нукус, 2023. – С. 79-82.

Bugungi kunda qoraqalpoq to‘ylari bir necha bosqichlardan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos marosim va urf-odatlariga boy. Ularga amal qilish esa, katta moddiy mablag‘ talab etadi.

Ayttirib alip uylanish mablag‘ talab etadigan xarajatli marosimlardan hisoblanadi. Qiz tomon uzatiladigan qizning mavsumiy kiyim-kechagi, oyoq-kiyimidan boshlab yangi oila uchun zarur bo‘lgan buyumlarni berishga harakat qiladi. Shu o‘rinda, o‘z yaqinlari, qarinish-urug‘laridan yordam berishi so‘raladi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, yoshlar tomonidan beriladigan o‘zaro yordam turlari ham bor bo‘lib, ular sinfdosh, kursdosh singari do‘stlar orasidagi munosabatlarda amalga oshiriladi. Zamonaviy yoshlar orasidagi aloqalarda o‘zaro yordam berish masalasi juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

Qoraqalpoqlarda qadimdan shakllangan yordam turlaridan biri «*nemewrin*» deb nomlanadi. Bunda «*nemewrin*» ikki xil holatda so‘ralgan;

1. O‘g‘lini uylantirishda, to‘yning kam-ko‘stini to‘ldirish maqsadida, badavlat qarindoshlaridan «*nemewrin*» so‘ragan.

2. Turmush qurgan yosh oilalar, yangi uyga ko‘chib o‘tishda zarur bo‘lgan buyumlarini olishi uchun «*nemewrin*» so‘ragan.

Qoraqalpoq tili izohli lug‘atida «*nemewrin*» - turmush qurgan yigitga, turmushga chiqqan qizga yaqin kishilarga beriladigan narsa, *sibag‘a*³⁶, deb keltiriladi. Informator G.Esemuratovning xotiralarida: «*Nemewrin - uzatilib borayotgan qizlarga, alohida uyga ko‘chib o‘tgan yigitlarga yordam hisobida beriladigan hadya, buyum*»³⁷ deb ataydi.

Qoraqalpoqlarda «*jabıw**» an‘anasi ma‘nosi bo‘yicha, kelin olib to‘y beruvchi oilaga qarindosh-urug‘, qo‘shnilar, yaqin do‘stlar tomonidan beriladigan yordam bo‘lib, bolajak to‘yning chiqimini birgalikda «*jabıw*» maqsadida amalga oshiriladi va mana shu «*jabıw*» nomi bilan saqlanib qolgan. Bu an‘ana Qo‘ng‘irot va Sho‘manay tumanlarida yashovchi o‘zbeklarda paydo bo‘lgan va qoraqalpoqlar turmushiga ham kirib borgan. Taxminan XX asrning 30-40 yillarida *jabıw*ga eng avvalo qarindosh-urug‘lar *don** beradigan bo‘lgan.

*Jabıw*ga aytish an‘anasi Mo‘ynoq tumani qoraqalpoqlari turmushida ham ko‘zga tashlanadi. Bu hududda, ushbu an‘ananing kirib kelishiga Qo‘ng‘irotlik o‘zbeklarning ta‘sirini sezishimiz mumkin. *Jabıw* bu yerda yangi nom bilan shakllangan bo‘lib, u *oramal saltıw** degan nom bilan ma‘lum. Qariyb 1990-yillarda mana shu nom bilan atala boshlagan va hozirgi kunda to‘y oldi o‘zaro yordamning bir shakli sifatida saqlanib qolgan³⁸. Mo‘ynoq tumanidagi *oramal saltıw* an‘anasining Qo‘ng‘irot va Sho‘manay tumanlarida shakllangan *jabıw*dan

³⁶ Қарақалпақ тилинің түсиндірме сөзлігі. 4 томлық. 3-т. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1988. – 356 б.

³⁷ ADY 2024 № 141. Nukus shahri informator, Esemuratova Gúláysha.

* *jabıw*- zamonaviy bosqichda Qong‘irot va Shumanoy tumanlarida yordam ko‘rsatish turlaridan biri bo‘lib, nikohgacha bo‘lgan rivojlangan an‘analardan biri hisoblanadi. Tashkilotchilar va asosiy ishtirokchilar- ayollar.

* «*don*» *berish* – buning sababi aholining iqtisodiy ahvoli og‘ir bo‘lib, asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan kun kechirgan.

* *oramal saltıw* - Mo‘ynoq tumanida to‘y oldi an‘analaridan biri bo‘lib, o‘zaro yordamning bir ko‘rinishi. «*Jabıw*»ga aytish an‘anasiga nisbatan hajmi jihatidan katta bo‘lib, to‘y hisobiga o‘tkaziladi. «*Jabıw*»dan yana bir farqi shundaki, bunda erkaklarda ayollar bilan teng ishtirok etadi.

³⁸ ADY 2023 №76. Mo‘ynoq tumani informator, Bawbekova Qaljamal.

farqli tomoni yordam tarzida olib borilgan narsaning o‘rniga hech narsa olib qaytmasligida ekanini ko‘rishimiz mumkin.

“To‘y va boshqa marosimlardagi qarindoshlar orasidagi o‘zaro yordam an’anasi” deb nomlangan ikkinchi paragrafida to‘y va boshqa marosimlardagi qarindoshlar orasidagi o‘zaro yordam tahlil qilinadi.

Taxminan 2010-yildan keyingi davrlarda yigit uylanganida qizni uzatib sovchi qo‘yib olish an’anasi keng urfga aylana boshladi. Qoraqalpoqlarda «qiz uzatish» to‘ylarida qizning sepiga qo‘shib ko‘rpacha, ko‘rpa va yostiqlar ham beriladi. *Qiz uzatish to‘yi va uylanish to‘ylaridagi to‘y oldi tashkillashtiriladigan «ko‘rpacha tikishga ko‘makka aytish»* an’anasi Qorao‘zak, Chimboy, Kegeyli tumani qoraqalpoqlarida yaxshi saqlanib qolgan. Har bir qatnashuvchi bir ko‘ylaklik mato yoki yaxshi ro‘molni *qizning sepiga ko‘rimlik* sifatida hadiyaga olib boradi.

Mo‘ynoq tumani qoraqalpoqlari turmushida ko‘rpacha tikishga aytiladigan ko‘mak *ip ilma* qadasi* deb yuritilsa, Qo‘ng‘irot, Sho‘manay tumanlarida *ko‘rpa ilma qadasi** degan nom bilan o‘zaro yordam berish an’anasining bir shakli sifatida amalga oshiriladi.

To‘y kuni yoki boshqa marosim kunlari (*janoza, sadaqa, kichik hajmli marosimlar, shashuv, yubiley to‘ylari h.k.*) kelgan mehmonlar, odatda, marosim beruvchi uyga moddiy yordam sifatida pullik yordam beradi. Buning uchun to‘yxona tomonidan maxsus daftar qo‘yilib, pul berganlarning ro‘yxati yoziladi.

Qoraqalpoqlarda «janoza namozi» (dafn marosimi), «namoz» vaqtida qarindoshlar tomonidan qora mol va shu kabi chorva mollarini janoza bo‘layotgan uyga yordam sifatida olib borish ko‘plab kuzatiladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yordam hisobida amalga oshiriladigan, to‘y va marosimlarda qarindoshlar va qishloqning yosh kelinlari bajaradigan dasturxon yozish, kelgan mehmonning qo‘lini yuvdirish, choy-suv, taomini olib kelish, mehmon ketgach, idishlarni yig‘ib yuvish kabi xizmatlarga «*pullik xizmatdan*» foydalanish turlari paydo bo‘lmoqda. Bunda 4-5 xotin-qiz bu ishga kunlik to‘lov hisobida, belgilangan pulga yollanadi (xizmatning bu turlarini Kegeyli, Sho‘manay tumani, Nukus shahridagi to‘ylarda kuzatdik) va uni zamonaviylashtirgan holda «*super kelinchak xizmati*» degan nom bilan ataydi.

Mazkur bobning **“Qo‘shnilar orasidagi o‘zaro yordam”** deb nomlangan uchinchi paragrafida to‘y va boshqa marosimlardagi qo‘shnilar orasidagi o‘zaro yordam masalasi tahlil qilinadi.

Qoraqalpoqlar turmushida qo‘shnichilik munosabatlari va qo‘shnishilik aloqalari juda yaxshi rivojlangan bo‘lib, ularning o‘zaro munosabatlari haqida yaxshi fikrlar bildirilgan. Mana shu masalada xalqimiz orasida: «*Olisdagi qarindoshdan, yaqindagi qo‘shni yaxshi*» degan maqol bor.

* kórpe ilme hám sabaq ilme qádesi - oramal salw - Mo‘ynoq tumanida to‘y oldi an’analaridan biri bo‘lib, o‘zaro yordamning bir ko‘rinishi. «Jabıw»ga aytish an’anasiga nisbatan hajmi jihatidan katta bo‘lib, to‘y hisobiga o‘tkaziladi. «Jabıw»dan yana bir farqi shundaki, bunda erkaklarda ayollar bilan teng ishtirok etadi.

Bugungi kunda xalqimiz turmushida masjidlar, qishloq-jamoasi, ko'cha va boshqa shu kabi norasmiy jamoat birlashmalari mavjud bo'lib, ular qo'shnichilik aloqalarining ijtimoiy institut sifatida yaxshi rivojlanishida, o'zaro yordam ko'mak an'analarini keng amalga oshirishda asosiy o'rinni egallaydi. Shu o'rinda shuni ham ta'kidlash kerakki, ma'lum bir hududda joylashgan bir necha hududiy qo'shni jamoalar odatda «masjid qavm» deb ataladigan ulkan jamoa atrofiga birlashadi³⁹. «Masjid qavm» tushunchasi oldinlari biroz boshqacha tushunchaga ega bo'lgan. Tadqiqotchi M.Qarlibaevning tadqiqotlarida: «... har bir masjid qavmining o'z mullasi bor edi. 30 oila masjid qavmni tashkil etgan. ... Ko'p holatlarda bolalar bir urug' va qavm mullasidan ta'lim olgan»⁴⁰ deb keltiradi.

Qandaydir marosimning «kengash»ini o'tkazish masalasi qo'shnilarning o'zaro yordam an'analarini to'liq ochib beradi. Kengash yoki maslahat marosimni o'tkazish shaklini, chiqimlar miqdorini, taklif qilingan mehmonlar sonini va boshqalarni belgilaydi.

Shu o'rinda qo'shni erkak kishilar tomonidan beriladigan ko'mak masalasi: marosimning tashkillashtirilishi, so'yiladigan molni tayyorlash, marosimning taomini tayyorlash va marosim qatnashuvchilariga taomni tarqatishda qatnashish⁴¹kabi ishlarda ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, qishloqning qo'shni yosh yigitlari tomonidan beriladigan yordamlar ham ko'zga tashlanadi va bular: yaqin belgilangan hududlarga to'yning xabarini yetkazish, o'tkaziladigan marosim taomining sabzisini to'g'rash va boshqa mayda ko'zga ko'rinmaydigan ishlarni amalga oshirish bilan birga, yana bir «alohida» yordam turi bor bo'lib, u marosim bo'layotgan uyga suv yetkazib berish bilan shug'ullanadi.

Folklor materiallari asosida qoraqalpoqlardagi to'y marosimlaridagi o'zaro yordam masalasini o'rgangan B.Bekjanova o'z ishida: «To'ydan oldin o'tkaziladigan «Kengash to'yi»da to'y egasining qarindoshlari, qo'shnilar, jamoat a'zolari qatnashgan, keksalar, qishloq biyi rahbarligida nikoh to'y marosimlariga tayyorgarlik bilan bog'liq masalalar o'zaro maslahatlashgan holda hal qilingan⁴²» deb ta'kidlaydi.

Qo'shni o'zbek xalqida to'y marosimlaridagi o'zaro yordam masalalariga tadqiqotchilar T.X.Tashbaeva, M.D.Saburovlar maxsus to'xtalib o'tadi: «...Agar katta marosim rejalashtirilgan bo'lsa, odat bo'yicha, birinchi navbatda eng yaqin qarindoshlar kengashga, maslahatga chaqiriladi. Bunda asosiy masalalar ko'rib chiqiladi: oilalar mehmonlarni qabul qilishga, to'y marosimini o'tkazishga tayyormi, qanday yordam berish kerak»⁴³ - kabi masalalar qo'yilishi qoraqalpoq to'ylaridagi «kengash to'y»ga har tomonlama o'xshashligini ko'rsatadi.

³⁹ Давлетияров М.М. Традиционные социальные институты каракалпаков. – Нукус: Илим, 2019. – С. 119.

⁴⁰ Карлыбаев М.А. Медресе в Каракалпакии XIX – начала XX веков. – Нукус, 2002. – С. 5-6.

⁴¹ Есбергенов Х., Атамуратов Т. Традиции и их преобразование в городском быту каракалпаков. – Нукус: Каракалпакстан, 1975. – С. 65.

⁴² Бекжанова Б. Қорақалпоқ тўй маросими фольклорининг тарихий-этнографик хусусиятлари (никоҳ тўйи маросимлари мисолида): Тар. фан. фалс. д-ри (PhD). ... дис. автореф. – Нукус, 2020. – Б. 19-20.

⁴³ Ташбаева Т.Х., Сабуров М.Д. Новое и традиционное в быту сельской семьи узбеков. – Т.: ФАН, 1989. – С. 55.

Qoraqalpoq qishloqlarida qishloqning yoshi ulug‘ opalari *kepkir kúydi* (kapgir kuydi) an‘anasini amalga oshirishda uzun qilib ip bog‘laydi, unga to‘y berayotgan uyning ayoli yaxshi ko‘ylaklik ikki matoni tashlaydi. So‘ngra, dayi opalari, tug‘ishgan opalari, qarindoshlari yaxshi ko‘ylaklik matolarini ipga tashlaydi. Olib kelingan bu narsalar to‘yxona egasiga beriladi⁴⁴.

Xo‘jayli tumani hududida *kepkir kúydi* an‘anasi *nan jabar* degan nom bilan ataladi. Bu *nan jabarda* qo‘shnilar tomonidan tashkillashtiriladigan *tawar-shashaq** larni hadiyaga berish orqali o‘zaro yordam an‘anasini amalga oshiradi. Bunda qo‘shni ayollar tomonidan ma‘lum darajada pul yig‘iladi. O‘rtaga to‘plangan pulga 8 yoki 10 mato juft qilib olinadi. Bu matolar to‘y beruvchi uyga yordam ta‘riqasida beriladi⁴⁵.

Qo‘shnilar tomonidan amalga oshiriladigan o‘zaro yordam an‘anasi ularning kundalik turmushidagi o‘zaro aloqa vositasi hisoblanadi. Ularning to‘y va marosimlarni birgalikda, qo‘lidan kelgan yordamini berishi orqali ularning katta kuch ekanligini anglashimiz mumkin.

Ushbu bobning **“Qoraqalpoqlarda homiylik yordami”** deb nomlangan to‘rtinchi paragrafida qoraqalpoqlardagi homiylik yordam masalasi tahlil qilinadi.

Qoraqalpoqlarning kundalik hayotida o‘zaro yordam an‘anasining har xil shakllari mavjud. Ayrimlari turmushda iste‘moldan chiqqan bo‘lsa, ba‘zilari zamonaviy turmushga moslashib rivojlanib bormoqda. Mana shunday xalqning yashash sharoitini yaxshilashga qaratilgan yordam turlaridan biri qoraqalpoqlar orasida keng tarqalgan *homiyluk yordam* turi hisoblanadi.

«Homiyluk» so‘zi qoraqalpoq izohli lug‘atida g‘amxo‘rlik⁴⁶, homiyluk ma‘nolarida keltirilgan. Homiyluk tushunchasi shaxslar yoki tashkilotlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy sohadagi nodavlat ixtiyoriy, pulsiz faoliyat sifatida izohlanadi⁴⁷. Shu o‘rinda homiyluk yordamning ikki asosiy turini ajratib ko‘rsatish mumkin: birlashmagan (sadaqa) va birlashgan (jamoat, davlat va diniy homiyluk)⁴⁸.

Shunday qilib, *homiyluk yordam* qoraqalpoqlar orasida ham keng tarqalgan yordam turi ekanligining isboti sifatida O‘zbekiston Qahramoni Allaniyaz Oteniyazov tomonidan olib borilgan homiyluk, g‘amxo‘rlik ishlarini ko‘rsatishimiz mumkin. U hayoti davomida o‘z kuchi bilan 40 turar joy imorati, 2 maktab, 2 o‘ttiz o‘rinlik bolalar bog‘chasi, 2 tibbiy markaz, 1 kutubxona qurib foydalanishga topshiradi. 2000-yilda 15 gektar yerda bog‘ bunyod etgan⁴⁹.

⁴⁴ ADY 2023 № 115. Qaraózek tumani informant, Maxamatdinova Gulxan.

* *tawar-shashaq*-mato va rumolni anglatadi. Dastlab mato bo‘lagiga rumol qo‘shib olib kelsalar, hozirda matoning o‘zi olib kelinadi.

⁴⁵ ADY 2021 №5. Xojeli tumani informant, Sultanova Gúlsánem.

⁴⁶ Карақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Көп томлық, 3-т. – Нөкис: Карақалпақстан, 1988. – Б. 158.

⁴⁷ Пешкова Н.Н. Кросс-культурный анализ благотворительной деятельности // Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал). – М., 2012. - №2 (10).

⁴⁸ Рыбальченко М.Б., Иксанов М.Ш. Институционализация благотворительности как социального института современного Российского общества // Auditorium: электронный научный журнал Курского государственного университета. – Курск, 2015.- №1 (05).

⁴⁹ Даўлетмуратова Э., Даўлетмуратов А. Алланияз қахарман- адамгершиликтиң жоқары шыңы. – Нөкис, 2012.

Homiylik qiluvchilarning bu ishlari qandaydir bir diniy ishonch bilan bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Asosan, aholiga o'z yordamlarini berishi orqali «*bolalarimizga sharofati tegadi*», «*muhtojga yordam bersam barakam mo'l bo'ladi*», «*yetimning boshini silasam jannatga eshik ochiladi*» kabi tushunchalarning ko'plab qo'llanilishiga bog'liq. Bunday xarakterdagi qarashlar din tarixida ulkan ahamiyatga ega va bugungi kungacha saqlanganligini⁵⁰ ko'rishimiz mumkin.

Jamiyatimizda taniqli ishbilarmonlar kam ta'minlangan oilalarga homiylik yordami asosida ko'pgina g'amxo'rlik ishlarini amalga oshirmoqda. Qorao'zak tumani turg'uni ishbilarmon Abbaz Tangatarov Qorao'zak tumani hududida bir qancha homiylik ishlarini amalga oshirgan. Jumladan, 2020-yil Pandemiya davrida tumanda koronavirus epidemiyasini yuqtirgan 120 oilaga oziq-ovqat va pullik yordam, 2022- yili muhtoj 5 oilaga turar joy qurib berishda homiylik qilgan⁵¹.

